

- Ketingga o'tir tepaman, avrangni yig'ib olib kusan!

- Sizga nima yomonlik qildim, amaki?

- Og'zingizdan sutning hidi kepturibdi-yu, mahallaning sartaroshidek sipoligingga kuyaymi.

- Nima qil deysiz?

- To'palon ko'tar. Hech bo'lmasa, hushtak chal.

- Chalardim-u, kecha tishim tushgan-da.

- Unda, baqirsang-chi, momiqvachcha!

- Nima deb baqiraman?

- Ho' o'rtada o'ralashib yurgan qora kiyimli ishbuzuqini ko'ryapsanmi? Ana o'sha xumparning shaniga kurakda turmaydigan bir-ikkita gap ayt. Masalan, mana bunday degin. Qani, qulog'ingni tut-chi.

- Voy vu-u-y! Bunaqa deyish uyat bo'ladi-ku!

- Lanj bola ekansan! G'irt qiztabiat bo'psan! Aljirash qo'lingdan kelmasa, oramizga suqilib nima qilarding? Hozir ketingga bir tepaman...

- Namuncha menga yopishvoldingiz, amaki? Dadam aytuvdi-ya, "Paxtakor yutqazishni boshlasa, sen stadiondan qochishni boshla, deb.

1978